

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


***Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 61-222-67-45***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 855 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 82 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 706,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 107,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 26,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 54,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 680,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,4%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 97,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 133,7 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	706,8	107,2
Nukus shahri	147,1	110,0
tumanlar:	-	
Amudaryo	59,5	106,7
Beruniy	46,5	106,9
Bo'zatov	7,7	106,6
Qorao'zak	29,3	105,8
Kegeyli	19,0	106,5
Qo'ng'iro't	53,8	107,1
Qonliko'l	25,2	106,2
Mo'ynoq	6,8	103,8
Nukus	20,2	104,9
Taxiatosh	44,3	102,2
Taxtako'pir	22,0	108,7
To'rtko'l	78,9	106,1
Xo'jayli	59,3	109,5
Chimboy	32,7	105,9
Shumanay	14,3	105,5
Ellikqal'a	40,2	108,7

2024-yilning yanvar oyida 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan respublikaning Nukus shahri (110,0%), Xo'jayli (109,5%), Taxtako'pir (108,7%) va Ellikqal'a (108,7%) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ulushi, foizda




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 20,8 % bilan 147,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mo'ynoq tumani 1,0 % bilan 6,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm







Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 680,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 11,4 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 54,4 % ni va 26,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,7 % ulushiga to'g'ri keldi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Nukus (99,7 %) va Qonliko'l (100,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (13,4 %), Beruniy (6,0 %), Nukus shahri (4,7%) va To'rtko'l (4,4 %) tumanlarida kuzatildi.

3,7%


96,3%

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda*




2024-yilning yanvar oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 355,3 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 105,8 %) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxiato‘sh (579,7 ming. so‘m), Taxtako‘pir (565,0 ming. so‘m) va Qorao‘zak (539,2 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (ozuq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	97,6	133,7
Nukus shahri	13,8	137,5
tumanlar:		
Amudaryo	7,7	131,9
Beruniy	8,8	123,7
Bo'zatov	1,8	124,2
Qorao'zak	3,8	150,7
Kegeyli	2,7	122,7
Qo'ng'iro't	7,6	135,6
Qonliko'l	5,3	122,2
Mo'ynoq	1,0	117,8
Nukus	5,5	114,4
Taxiatosh	4,0	264,7
Taxtako'pir	4,7	138,4
To'rtko'l	14,6	115,7
Xo'jayli	5,6	161,2
Chimboy	5,2	130,7
Shumanay	2,4	135,0
Ellikqal'a	3,1	207,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar)



Respublika bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 97,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 133,7 % ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 59,4 mlrd. so'mni (141,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 38,2 mlrd so'mni tashkil etdi (122,7%).













2024-yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 59,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (21,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>21,0 mlrd. so'm</p>  <p>56,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>4,1 mlrd. so'm</p>  <p>6,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>13,4 mlrd. so'm</p>  <p>10,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>3,0 mlrd. so'm</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>4,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>3,4 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>1,4 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>- mlrd. so'm</p> <p>- %</p>

2024-yilning yanvar oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 38,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 30,7 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 6,4 mlrd. so'mni, otlar – 0,8 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>12,0 mlrd. so'm</p>  <p>49,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>7,9 mlrd. so'm</p>  <p>15,8 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>10,8 mlrd. so'm</p>  <p>20,1 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>4,0 mlrd. so'm</p>  <p>7,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>- mlrd. so'm</p>  <p>-%</p>
<p>Qushlar</p> <p>- mlrd. so'm</p>  <p>-%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 052 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 051 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	21,7	107,5
Nukus shahri	8,6	107,7
tumanlar:	-	
Amudaryo	1,0	106,5
Beruniy	0,6	106,4
Bo'zatov	0,1	107,2
Qorao'zak	0,6	106,9
Kegeyli	0,2	106,6
Qo'ng'iro't	5,4	107,6
Qonli'ko'l	0,3	106,8
Mo'ynoq	0,1	109,1
Nukus	0,2	107,8
Taxiatosh	0,5	108,1
Taxtak'o'pir	0,1	107,1
To'rtko'l	1,4	107,3
Xo'jayli	1,3	107,2
Chimboy	0,6	107,5
Shumanay	0,1	107,3
Ellikqal'a	0,6	108,6

2024-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 21,7 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,9% ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	162,9	100,0
Nukus shahri	109,4	67,1
tumanlar:		
Amudaryo	2,2	1,3
Beruniy	35,3	21,7
Bo'zatov	0,1	0,1
Qorao'zak	0,1	0,1
Kegeyli	11,0	6,8
Qo'ng'iro't	0,2	0,1
Qonliko'l	0,1	0,1
Mo'ynoq	0,1	0,1
Nukus	-	-
Taxiatosh	0,4	0,3
Taxtako'pir	0,1	0,0
To'rtko'l	1,6	1,0
Xo'jayli	0,4	0,2
Chimboy	1,0	0,6
Shumanay	-	-
Ellikqal'a	1,0	0,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (109,4 mlrd. so'm), Beruniy (35,3 mlrd. so'm) va Kegeyli (11,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024-yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 162,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 137,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 62,8 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 107,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 110,1 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 166,7 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **228,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **9,8** % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **210,6** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **110,4** % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **92,3** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 012 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 007 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (110,0 %) va Taxiatoş tumanida (60,7%) kuzatildi

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	228,1	109,8
Nukus shahri	109,6	108,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	6,5	101,3
Beruniy	14,1	126,9
Bo'zatov	0,2	103,5
Qorao'zak	3,0	101,4
Kegeyli	0,2	100,9
Qo'ng'iro't	10,0	100,9
Qonliko'l	10,2	276,5
Mo'ynoq	6,1	106,0
Nukus	6,2	102,8
Taxiatoş	22,9	101,2
Taxtako'pir	2,2	102,1
To'rtko'l	16,9	101,5
Xo'jayli	6,6	104,0
Chimboy	6,3	101,4
Shumanay	0,3	100,6
Ellikqal'a	6,8	104,5